# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON, V-QISM**

Google Scholar

OpenAIRE

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*
*V-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI ....12
I. R. Berdikulova
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI ....16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li
Turobova Hulkar Rustamovna
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....24
Davletov Ikrom Raximberganovich
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI ....33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ....38
Абдуллаева М.Б.
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI ....44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI ....51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH ....55
Niyozov Zuxur Davronovich
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО ....58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI ....64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ....71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....77
Karimova Dilafruz Sadriddin qizi
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ....82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI ....89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI ....94
Otarbayev Zamir Zairovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ... 100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА ... 107
Дониёрова Зуҳрабону Алишер кизи
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ... 113
Xo'jamov Akbar Bahriddinovich
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI ... 118
Djumayev Askar Xaydarovich
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI ... 123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li
Qahhorova Nargiza Qahramonovna
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ... 129
Норкулов Хабибулло
Абдурасулова Шахзода
Бахриддинов Дилшодбек
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV ... 135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI ... 138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ... 147
Джуманов А.А.
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH ... 157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ ... 164
Джуманов А.А.
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI ... 174
Raxmanov Furqat Temirovich
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ... 179
Ибрагимов Гайратжон Артикович
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ... 186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI ... 192
Shakarov Zafar Gafforovich

URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI ........ 198
**Boboqulov Sanjar Baxronkulovich**
**Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li**
**Uzoqov Rafiq O‘lmas o‘g‘li**
INFRATUZILMA INVESTITSIYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI ........ 204
**Jiyanov Laziz Najimovich**
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ........ 210
**Курбанова Дилфуза Махсудовна**
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ........ 217
**Karimova Feruza Xamidullayevna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Karimova Feruza Xamidullayevna**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**
**tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilingan. Unda ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, motivatsiya, kognitiv jarayonlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samarali o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada kasbiy kompetensiyani rivojlantirish talabalarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda muhim omil sifatida yoritilgan.
**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, psixologik xususiyatlar, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, innovatsion ta'lim.
**Аннотация.** В данной статье проанализированы педагогико-психологические основы развития профессиональной компетентности студентов. В ней научно обоснована эффективная роль личностно-ориентированного подхода, мотивации, когнитивных процессов, а также инновационных педагогических технологий в образовательном процессе. В статье развитие профессиональной компетентности рассматривается как важный фактор повышения самостоятельного мышления студентов, их практических навыков и готовности к будущей профессиональной деятельности.
**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, педагогический подход, психологические особенности, мотивация, когнитивные процессы, инновационное образование.
**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing students' professional competence. It scientifically substantiates the effective role of a student-centered approach, motivation, cognitive processes, and innovative pedagogical technologies in the educational process. The article highlights the development of professional competence as an important factor in enhancing students' independent thinking, practical skills, and readiness for future professional activity.
**Keywords:** professional competence, pedagogical approach, psychological features, motivation, cognitive processes, innovative education.

## KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri talabalarda kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-madaniy, refleksiv, ijodiy, kommunikativ, boshqaruv va rivojlantiruvchi shaxsiy sifatlarni shakllantirishdan iborat. Shu bois zamonaviy jamiyat taraqqiyotida innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan, ishlab chiqarish va biznes sohalarida kechayotgan innovatsion jarayonlar zamonaviy mutaxassislar, xususan, iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu esa nafaqat yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lishni, balki innovatsiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va ulardan samarali foydalanishga tayyor bo'lishni ham taqozo etadi. Shunday qilib, mamlakatning innovatsion rivojlanish samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga, shuningdek, innovatsion jarayonlarni boshqarishga qodir iqtisodchi kadrlarni tayyorlash bilan belgilanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu esa talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda. Kasbiy kompetensiya nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, kasbiy faoliyatga munosabati hamda ijtimoiy faolligini ham qamrab oladi. Shu bois mazkur jarayonni pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining nazariy va amaliy bilimlariga qo'yilayotgan talablar ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Pedagogika,

psixologiya, iqtisodiyot va sotsiologiya fanlarining oʻzaro uzviy bogʻliqligi talabalarning fundamental tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Shu jihatdan oliy taʼlim jarayonida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy taʼlim sifatini taʼminlashning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida tarixiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bogʻliq ayrim murakkabliklar mavjud. Shu bilan birga, taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, oʻquv dasturlarini takomillashtirish, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim yondashuvlarini keng joriy etish hamda talabalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish boʻyicha muhim natijalarga erishilmoqda. Zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Turli nuqtayi nazardan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishga qaratilgan muhim va dolzarb masalalarda asosiy eʼtibor oliy taʼlim gʻoyalariga mos keladigan tayanch kompetensiyalarni aniqlashga qaratiladi. Oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik boʻlajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, koʻnikma, malaka hamda faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qoʻllash qobiliyatini anglatadi. Pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan kompetensiya bilim va amaliy vaziyat oʻrtasidagi aloqani oʻrnatish, keng maʼnoda esa muammoni hal etish uchun zarur boʻlgan jarayon, yaʼni harakat va bilimni toʻgʻri tanlash hamda qoʻllash qobiliyati sifatida namoyon boʻladi.

Kompetentlilik faqatgina bilim va koʻnikmalar yigʻindisi boʻlib qolmay, balki talabalarning egallagan bilimlarini safarbar etishi va ularni aniq amaliy vaziyatlarda qoʻllay olishi bilan tavsiflanadi. Talabaning kasbiy faoliyat sohasida malakali boʻlishini taʼminlash uchun unda tegishli kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya talabaning taʼlim jarayonidagi faolligini oshirish, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hissa qoʻshish, kelgusida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga koʻmaklashish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik — mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amaliyotda yuqori darajada qoʻllay olishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan faqat alohida bilim va malakalarni egallashni emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarni oʻzlashtirishni ham nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimiy ravishda boyitib borish, yangi axborotlarni oʻrganish, muhim ijtimoiy talablarni anglash, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash hamda oʻz faoliyatida samarali qoʻllay bilishni taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi mahalliy olimlar tomonidan turli pedagogik yondashuvlar asosida oʻrganilgan. E.O. Ismoilov talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuv muhim oʻrin tutishini taʼkidlaydi. Uning fikricha, fanlararo bogʻliqlik talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uygʻunlashtirishga xizmat qiladi.

F.X. Karimova oliy taʼlimdagi innovatsion jarayonlar va kasbiy kompetensiyaning psixologik-pedagogik asoslarini tadqiq etib, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, motivatsiya va innovatsion texnologiyalar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim omil ekanligini asoslaydi.

B.E. Kurbonov iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishda treninglar va amaliy mashgʻulotlarning ahamiyatini koʻrsatadi. Bu yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

D.O. Ximmataliev va R.X. Fayzullaev fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasiga eʼtibor qaratib, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini oʻzaro bogʻliq holda oʻqitish samarali natija berishini taʼkidlaydilar.

Umuman olganda, mahalliy olimlarning qarashlari talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv, innovatsion taʼlim, amaliy mashgʻulotlar va fanlararo bogʻliqlik muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini oʻrganishda nazariy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, mahalliy olimlarning qarashlari hamda kompetensiyaviy yondashuvga doir nazariy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli tahlil usullari asosida kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, pedagogik omillari hamda psixologik xususiyatlari aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga qodirligini ifodalovchi integrativ sifat boʻlib, u bilim, amaliy koʻnikma, shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy tajriba birligini oʻz ichiga oladi. Uning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

– kognitiv komponent — bilimlar tizimi;
– amaliy-funksional komponent — koʻnikma va malakalar;
– motivatsion komponent — kasbiy qiziqish va ehtiyojlar;
– shaxsiy komponent — qadriyatlar, mas'uliyat va refleksiya.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi omillar bilan belgilanadi. Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

– shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim — har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish;
– faoliyatga asoslangan yondashuv — talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali bilimlarni mustahkamlash;
– interfaol metodlardan foydalanish — keys-stadi, trening va loyiha ishlari asosida ta'lim samaradorligini oshirish;
– integrativ ta'lim — nazariy va amaliy bilimlarni uygʻunlashtirish;
– raqamli texnologiyalarni joriy etish — elektron ta'lim muhiti orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning psixologik xususiyatlari psixologik nuqtayi nazardan quyidagi jihatlar bilan bogʻliq:

– motivatsiya — talabalarda kasbiy faoliyatga qiziqish va ichki ragʻbatni shakllantirish;
– kognitiv jarayonlar — tafakkur, xotira, diqqat va muammoni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish;
– refleksiya — oʻz faoliyatini tahlil qilish va baholash koʻnikmasini shakllantirish;
– ijtimoiy-psixologik muhit — jamoada ishlash, muloqot madaniyati va hamkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish;
– emotsional barqarorlik — stressga chidamlilik va oʻzini oʻzi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Zamonaviy ta'lim sharoitida kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilganda, bugungi kunda ta'lim tizimida mavjud boʻlgan quyidagi yoʻnalishlar talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

– kredit-modul tizimi orqali mustaqil ta'limni kuchaytirish;
– dual ta'lim va amaliyotga yoʻnaltirilgan oʻqitishni rivojlantirish;
– raqamli platformalar va onlayn kurslardan samarali foydalanish;
– innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, talabalarning kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirish pedagogik va psixologik omillarning oʻzaro uygʻunligiga bogʻliq. Faqat nazariy bilim berish orqali yuqori natijaga erishish yetarli emas; bunda talabalarning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy motivatsiyasi va amaliy faoliyatga tayyorgarligi ham izchil ta'minlanishi lozim.

Kasbiy tayyorgarlik zarur kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining oʻziga xos koʻrinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik oʻz-oʻzidan shakllanmaydi, balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga oid tasavvur va tushunchalarning tarkib topishi bilan belgilanadi. Keyingi bosqichlarda esa mutaxassislikka oid bilim, koʻnikma va malakalarning oʻzlashtirilishi, kasbiy sifatlarning shakllanishi hamda kasbiy moslashuv darajasi bilan izohlanadi.

Kasbiy moslashuv — obyektiv va subyektiv ta'lim sharoitida boʻlajak mutaxassis shaxsining kelgusidagi kasbiy faoliyat talablarini oʻzlashtirishi, faoliyat jarayoniga moslashishi hamda kasbiy layoqatlilik darajasining rivojlanishidir. Kasbiy shakllanish shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri boʻlib, u kasbiy faoliyatni ongli tanlash, unga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarning rivojlanishi bilan bogʻliq. Kasbiy sifatlarning mazmuni va shakllanishi mehnat faoliyati yoki kasb sohasining muayyan turini tanlash bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, shaxs tomonidan aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodasi hisoblanadi.

Bizningcha, kasbiy kompetensiya kasbiylikning muhim tavsifi boʻlib, uni asosiy fundamental ilmiy bilimlar majmuasi, talabalarning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi va qobiliyatini namoyon etuvchi amaliy koʻnikmalarga asoslangan integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin etish mumkin.

Har qanday ixtisoslik boʻyicha boʻlajak mutaxassisning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Masalan, boʻlajak mutaxassis kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida muammoning kompleks yechimlarini ishlab chiqishi, mavjud variantlarni tahlil qilishi, oqibatlarini bashorat qilishi, koʻp mezonli sharoitda murosali yechimlarni topishi, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishi hamda loyihani takomillashtirish kabi masalalarni samarali hal eta olishi lozim. Bu jarayon ijrochilarning ishlarni tashkil etish usullari va shakllarini bilishi,

shuningdek, turli qarashlar nuqtayi nazaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tamoyillarini egallashiga bog‘liq.

Respublikamiz ijtimoiy hayotiga axborotlar oqimi tez sur’atlar bilan kirib kelmoqda va tobora keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor qabul qilish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabalarga samarali yetkazib berish oliy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ushbu vazifani ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Mohiyatiga ko‘ra, innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. Tizim sifatida yangilik kiritish, birinchidan, munosabat yoki jarayonning ichki mantig‘ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig‘ida izchil rivojlanishi hamda atrof-muhitga ko‘rsatadigan o‘zaro ta’sirini ifodalaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishda qo‘llaniladigan asosiy ta’lim usullari orasida muammoli ta’lim, boshqa fanlardan olingan bilimlarni jalb qilish bilan bog‘liq muammoli vazifalarni ishlab chiqish, dasturiy ta’minot bilan ishlash, turli fanlarga oid darsliklar va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda kompleks topshiriqlarni bajarishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ushbu metodlar fanlararo integratsiyalashuv jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, deyarli barcha fanlar o‘ziga xos integratsion salohiyatga ega. Biroq ularning samarali uyg‘unlashuvi muayyan sharoitlarga bog‘liq. Shu sababli matematik va tabiiy-ilmiy fanlarning umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasini amalga oshirishdan avval ushbu integratsiyaning zarurligi va imkoniyatlarini belgilovchi shartlarni inobatga olish lozim. Birinchidan, ta’lim oluvchi o‘quv guruhlarining tayyorgarlik darajasini tahlil qilish, ularning psixologik xususiyatlarini bilish va manfaatlarini baholash zarur. Ikkinchidan, ta’lim oluvchilarga bir fanni muvaffaqiyatli o‘rganish boshqa fanlarga oid bilim va ko‘nikmalar bilan bevosita bog‘liqligini tushuntirish muhimdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish murakkab, uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u pedagogik hamda psixologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Kasbiy kompetensiya talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi, kasbiy motivatsiyasi, muloqot madaniyati va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ham qamrab oladi. Shu bois oliy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, fanlararo bog‘liqlik va innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Ayniqsa, keys-stadi, trening, loyiha ishlari, muammoli ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy fikrlashi hamda real vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif sifatida, oliy ta’lim muassasalarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, raqamli ta’lim platformalaridan samarali foydalanish, mustaqil ta’limni kuchaytirish va fanlararo integratsiyani takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, talabalarning motivatsiyasi, refleksiv fikrlashi, ijodiy yondashuvi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ismoilov E.O. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati // TDPU ilmiy axborotlari jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 193–199.

Karimova F.X. Oliy ta’limdagi innovatsion jarayonlarning mohiyati va kasbiy kompetensiya muammosining psixologik-pedagogik asoslari // Pedagogika jurnali. – 2023. – № 5. – B. 136–141.

Kurbonov B.E. Iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishda treninglarni tashkil etish metodikasi va dasturi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2022. – 38 b.

Ximmataliev D.O., Fayzullaev R.X. Fanlararo integratsiya orqali texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini shakllantirish // Irrigatsiya va melioratsiya jurnali. – Toshkent, 2016. – № 4(6). – B. 76–78.

Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика: научное издание. – М.: Изд-во УНЦ ДО, 2005. – 222 с.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz